



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No6
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 172 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil mayda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 28-fevraldagi
333/5-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Strategies for achieving sustainable growth through green economy transition.....	14
Umida Kakhramonova Gayratovna, Tillayev Khurshidjon Sulaymon oglu	
Current state and development prospects of tourism: comparative analysis and Uzbekistan's experience.....	20
Risolatbonu Shakhzodova, Laziza Khalilova, Nabijonov Biloliddin, Aziza Usmanova	
Инновационные подходы к повышению эффективности корпоративного управления.....	26
Тлеумуратова Мадинабону Дилмурат кизи, Уринов Бабур Насиллоевич	
Startup проекты и их реализация	30
Ёдгорова Мухайе Шухратовна, Иминова Наргиза Акрамовна	
Methodology of Teaching English: Traditional and Modern Approaches	34
Ravshanova Ziyoda Qahramon Qizi, Xoliqova Dilafruz Shuhratovna	
Государственный кредит и государственный долг.....	37
Срождиддинова З.Х., Тухтасинова Д.Н.	
Сравнительный анализ реформ государственных финансов в Китае и Грузии: уроки для Узбекистана	42
Срождиддинова Зарина Хайриддиновна, Шарифзода Мубина Дилмуроджон кизи	
Korxonalarda asosiy vositalar hisobini yuritishni takomillashtirish	49
Shakarov Shahzod Sobir o'g'li, Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Esanov Oybek Madatovich	
Sustainable consumption and production: economic challenges and solutions.....	55
Abdullayev Abdug'ofur, Abdubaxromov Abduazim, Eshniyozov Ozodbek, Azizbek Abdullayev	
Traffic congestion in Uzbekistan: causes and strategic solutions	60
Abdulloh Qodirov, Imron Egamberdiyev, Isomiddin Ravshanov, Munisa Bekmirzayeva	
The relationship between corruption and economic growth.....	64
Jurayev Jo'rabek, Abdullayeva Aziza, Mamatova Sarvinoz, Maha Ibrahim	
Crisis management in the tourism industry	74
Ikromova Munisa, Bahodirova Mohigul, Xalimova Dilbar, Abdullajonova Muslimabonu	
Impact of the touristic indicators on the poverty rate.....	80
Abdumanova Maftuna, Azizova Ruhshona, Shavkatova Mubiyabonu, Durdona Bahodirova	
Bringing sustainability: the role of the green economy in enhancing resource efficiency	91
Salokhiddinova Farangiz, Mardonov MuhammadYusuf, Shovkiyeva Munisa, Ahmadova Xurshida	
The relationship between innovation and environmental emissions.....	98
Mamadiyeva Ruxshona, Nurullayev Asliddin, Abduraimov Sardor Anvar o'g'li, Aysayeva E'zoza	
Green finance unlocked: innovations, challenges in Uzbekistan's perspectives.....	107
Dildora Khodjaeva Mukhamedkhodjaevna, Jamolova Madina Talgatovna, Lola Qidiralieva Ulug'bekovna	
Turning the tide: how Uzbekistan can tackle its water crisis	115
Rixsiboyev Mirhaydar, Orazov Kamron, Baratov Shakhriyor, Bahromjon Urmanov	
Drivers and losses of economic development of Tashkent: a desk study.....	125
Zaribbaeva Komila Ulugbek qizi, Durdona Davletova	
The digital economy in Uzbekistan: challenges and opportunities.....	133
Ro'zmatov Asror, Bo'riyev Javohir, Safarov Habibullo, Mubina Toirova	
Analysis of water consumption in Uzbekistan	139
Rayimjonova Gulsora, Sarvinoz Murodova, Yahyoyeva Nurhayo, Durdona Zaynutdinova	



Global leadership and cross-cultural management: an empirical analysis of intercultural communication competence (icc) in uzbekistan	144
Dr. Eka Surchman, ST, MT, Annisa ciptagustia, SE, M.SI, Abdurakhmanova Iroda Gulmurod qizi	
iqtisodiy masalalarni matritsa nazariyasi asosida modellashtirish va python dasturlash tilida yechish	154
Tojiyev Ilhom Ibraimovich, To'rayeva Feruza Dilmurodovna, Namozova Barchinoy G'ayrat qizi, Baxronova Zuhra Otaniyoz qizi	
Raqamli to'lov tizimlarining naqd pulsiz iqtisodiyotga o'tishdagi o'rni	167
Jo'rabekova Xumora Muzaffar qizi, Saidov Rasul Boltabayevich	



RAQAMLI TO'LOV TIZIMLARINING NAQD PULSIZ IQTISODIYOTGA O'TISHDAGI O'RNI



Jo'rabekova Xumora Muzaffar qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

talabasijurabekovaxumora@gmail.com

ORCID: 0009-0006-4384-298X

Ilmiy rahbar:

Saidov Rasul Boltabayevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

i.f.n., dotsent

e-mail: rasulbek_saidov@gmail.com

ORCID: 0000-0003-0408-7409

Annotatsiya: Raqamli to'lov tizimlari zamonaviy iqtisodiy muhitda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Naqd pulsiz iqtisodiyotga o'tish jarayonida ushbu tizimlar hisob-kitoblarning tezligi, shaffofligi va xavfsizligini oshiradi. Ushbu maqolada raqamli to'lov infratuzilmasining rivojlanish tendensiyalari, O'zbekistondagi amaliyotlar, ularning iqtisodiy samaradorligi va naqd pul muomalasini kamaytirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, ilg'or xorijiy tajribalar asosida raqamli to'lov tizimlarining aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun qulayligi hamda ularni keng joriy etishning muhim jihatlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: raqamli to'lov, naqd pulsiz iqtisodiyot, to'lov tizimi, iqtisodiy xavfsizlik, moliyaviy texnologiyalar, raqamli infratuzilma.

Abstract: Digital payment systems play a significant role in the modern economy. In the process of transitioning to a cashless economy, these systems enhance the speed, transparency, and security of transactions. This article analyzes the development trends of digital payment infrastructure, practices in Uzbekistan, their economic efficiency, and the role in reducing cash circulation. Furthermore, it highlights the advantages of digital payments for citizens and businesses based on advanced international experience and emphasizes key aspects of their widespread adoption.

Key words: digital payment, cashless economy, payment system, economic security, financial technologies, digital infrastructure.

Аннотация: Цифровые платёжные системы играют важную роль в современной экономике. В процессе перехода к безналичной экономике эти системы способствуют повышению скорости, прозрачности и безопасности расчётов. В статье анализируются тенденции развития цифровой платёжной инфраструктуры, практики в Узбекистане, их экономическая эффективность и роль в снижении наличного денежного обращения. Кроме того, на основе передового международного опыта рассматриваются преимущества цифровых платежей для населения и предпринимателей, а также ключевые аспекты их широкого внедрения.

Ключевые слова: цифровые платежи, безналичная экономика, платёжная система, экономическая безопасность, финансовые технологии, цифровая инфраструктура.



KIRISH

So'nggi yillarda jahon miqyosida moliyaviy xizmatlar bozori tubdan o'zgarib, raqamli texnologiyalar asosidagi to'lov tizimlari yangi bosqichga ko'tarilmoqda. An'anaviy to'lov vositalarining o'rnini bosayotgan elektron va mobil to'lov texnologiyalari, shuningdek, fintech yechimlar nafaqat moliyaviy operatsiyalarni soddalashtirmoqda, balki iqtisodiyotni naqd pulsiz shaklga o'tkazish jarayonini ham tezlashtirmoqda. Naqd pulsiz iqtisodiyot — bu transaksiyalar asosan raqamli shaklda amalga oshiriladigan iqtisodiy model bo'lib, unda real vaqt rejimida, shaffof va nazorat qilinadigan moliyaviy oqimlar muhim o'rin tutadi.

Bunday tizimga o'tishning zaruriyati bir necha omillar bilan bog'liq: moliyaviy muomalalardagi xavfsizlikni oshirish, operatsion xarajatlarni kamaytirish, soya iqtisodiyoti ulushini qisqartirish va aholining moliyaviy xizmatlarga bo'lgan kirish imkoniyatini kengaytirish. Raqamli to'lov tizimlari bu borada strategik yechim bo'lib xizmat qiladi. Chunki ular orqali davlat byudjeti tushumlari ortadi, banklar o'rtasidagi integratsiya kuchayadi, fuqarolar uchun esa moliyaviy muhit yanada ochiq va tezkor bo'ladi.

Naqd pulsiz iqtisodiyotga o'tish jarayoni murakkab bo'lishiga qaramay, bu yo'nalishdagi islohotlar global iqtisodiy tendensiyalarga moslashish va milliy iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash imkonini beradi. Mazkur maqolada raqamli to'lov tizimlarining bu jarayondagi o'rnini, ularning texnologik va iqtisodiy afzalliklari, amaliyotdagi muammolar hamda ularni bartaraf etish mexanizmlari tahlil qilinadi. Shuningdek, iqtisodiy transformatsiya sharoitida ushbu tizimlarni samarali joriy etish uchun zarur bo'lgan infratuzilmaviy, ijtimoiy va axborot-kommunikatsion omillar chuqur o'rganiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Naqd pulsiz iqtisodiyotga o'tish zamonaviy moliyaviy tizimlarning transformatsiyasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ushbu jarayonda raqamli to'lov tizimlari yetakchi o'rin tutadi. Mazkur sohada O'zbekiston va Rossiyada olib borilgan ilmiy tadqiqotlar raqamli to'lov texnologiyalarining iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik jihatlarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

O'zbekistonlik tadqiqotchilar Dilmurodov Jurabek Ulug'bek o'g'li va Abdullayeva Ismigul Sardor qizi 2025-yil yanvar oyida chop etilgan maqolasida raqamli to'lov tizimlarining hozirgi holati, istiqbollari va ularning naqd pulsiz iqtisodiyotga o'tishdagi real ta'sirini tahlil qilgan. Ularning tadqiqotida elektron hamyonlar, NFC texnologiyasi, QR-kodli to'lovlar va blokcheyn asosidagi tranzaksiyalarning afzalliklari va xavfsizlik darajasi haqida keng ma'lumot beriladi. Shuningdek, ular Payme, ClickUp, Humo va Uzcard kabi milliy xizmatlar misolida raqamli to'lovlarning aholining turli qatlamlari tomonidan qabul qilinishi va amaliy joriy etilishi holatini yoritgan.

S. Raximov o'z ilmiy ishlarida raqamli to'lov tizimlarining fiskal boshqaruvdagi ahamiyatiga e'tibor qaratadi. Unga ko'ra, elektron to'lovlar orqali soliq tushumlari oshadi, "soya iqtisodiyoti" qisqaradi, budjet intizomi mustahkamlanadi. Shuningdek, Raximov operatsion xarajatlarning kamayishi, auditning soddalashuvi va transaksiyalarning izchilligi kabi jihatlarni ham amaliy misollar bilan ko'rsatadi.

R. Xusanov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda raqamli to'lov xizmatlarining moliyaviy inkluzivlikka ta'siri chuqur tahlil qilingan. U ayniqsa chekka hududlardagi aholi uchun raqamli bank xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mobil ilovalarning ommalashuvi va kredit olishda to'lov tarixining shakllanishi kabi jihatlarni muhim strategik yo'nalish sifatida baholaydi. Uning fikricha, raqamli to'lovlar moliyaviy xizmatlarga ishonchni oshiradi va fuqarolarning iqtisodiy faolligini rag'batlantiradi.

Rossiyalik iqtisodchi M.L. Kaluzhskiy elektron tijorat va raqamli to'lov tizimlarining uzviy bog'liqligini chuqur tahlil qilgan. Uning ta'kidlashicha, bozor infratuzilmasida raqamli to'lov vositalarining joriy etilishi sotuvchi va xaridor o'rtasidagi munosabatlarni yangilaydi, iste'mol madaniyatini o'zgartiradi va logistik zanjirlarning optimallashtirilishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, Kaluzhskiy marketing va moliyaviy strategiyalar orqali iste'molchilarni raqamli to'lovga yo'naltirish mexanizmlarini chuqur tahlil qiladi.

Texnologik xavfsizlik jihatlariga e'tibor qaratgan Farux Qodirov esa raqamli to'lov interfeyslari, foydalanuvchi tajribasi va interfeys dizayni asoslari bo'yicha ilg'or yechimlarni o'rganadi. Uning ishlari mobil ilovalar va raqamli tizimlar samaradorligini oshirish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, Qodirov NFC texnologiyasi va biometrik autentifikatsiya asosidagi xavfsizlik mexanizmlarini milliy tizimlarga moslashtirish bo'yicha g'oyalarini ilgari suradi.

Yuqorida keltirilgan ilmiy manbalar asosida xulosa qilish mumkinki, naqd pulsiz iqtisodiyotga o'tishda raqamli to'lov tizimlari iqtisodiy barqarorlik, moliyaviy shaffoflik va inkluzivlikni ta'minlovchi strategik infratuzilmadir. O'zbekiston va Rossiyada olib borilayotgan tadqiqotlar bu tizimlarning texnologik jihatlarini, iqtisodiy samaradorligi, ijtimoiy qamrov va xavfsizlik mexanizmlarini keng qamrovda o'rganayotganini ko'rsatadi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda raqamli to'lov tizimlarining naqd pulsiz iqtisodiyotga o'tishdagi o'rni amaliy va nazariy manbalar asosida o'rganildi. Ma'lumotlar asosan ikkilamchi manbalar orqali yig'ildi, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki statistik hisobotlari, to'lov tizimlari operatorlari (Uzcard, Humo, Payme, Click, Apelsin) faoliyati bo'yicha ochiq ma'lumotlar, Jahon banki va boshqa xalqaro moliyaviy institutlar tomonidan chop etilgan tahliliy materiallar asos bo'ldi. Bundan tashqari, Google Scholar, ResearchGate va Elibrary bazalarida chop etilgan O'zbekiston va Rossiyaga oid ilmiy maqolalar tahlil qilindi. Mazkur manbalardan foydalangan holda naqd pulsiz to'lovlar ulushi, mobil ilovalardan foydalanuvchilar soni, elektron to'lovlar hajmi, naqdsiz iqtisodiyotning YAIMga ta'siri kabi ko'rsatkichlar statistik jihatdan yig'ildi.

Ma'lumotlar tahlilida statistik uslublar va solishtirma yondashuvlardan foydalanildi. Raqamli to'lovlar hajmining yillar kesimidagi o'zgarishi grafik shaklida aks ettirildi, u orqali ularning o'sish dinamikasi aniqlab olindi. Shuningdek, O'zbekiston amaliyoti xorijiy davlatlar tajribasi bilan solishtirilib, o'xshashlik va farqlar chiqarildi. Tanlangan ko'rsatkichlar asosida trend tahlili, muvofiqlik tahlili va asosiy natijalarni umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tahlillar asosida raqamli to'lov tizimlarining iqtisodiy samaradorlikka, moliyaviy shaffoflikka va xizmatlar qamroviga ta'siri xulosa qilindi. Natijalar ilmiy adabiyotlar va mavjud amaliy ma'lumotlar asosida tekshirildi hamda muammoli jihatlar bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli to'lov tizimlari global iqtisodiy transformatsiyaning ajralmas elementi sifatida tobora muhim o'rin egallab bormoqda. Naqd pulsiz iqtisodiyotga o'tish jarayonida ushbu tizimlar orqali moliyaviy operatsiyalarni soddalashtirish, shaffoflashtirish, vaqt va xarajat jihatidan optimallashtirish imkoniyati paydo bo'ladi. O'zbekiston tajribasida bu jarayon o'ziga xos bosqichlarda rivojlanmoqda. 2020–2024-yillar oralig'ida elektron to'lov xizmatlari hajmi yildan-yilga o'sib, 2024-yil yakunida mamlakatda to'lovlarning 78 foizi raqamli shaklda amalga oshirilgan. Uzcard va Humo kabi milliy to'lov tizimlari, Payme, Click, Apelsin kabi fintech ilovalar aholining moliyaviy xizmatlarga kirishini soddalashtirmoqda.

Mobil ilovalardan foydalangan holda amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmi 2022-yilda 21 trillion so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yil oxiriga kelib bu ko'rsatkich 54 trillion so'mdan oshdi. Bu o'sish, birinchi navbatda, aholi orasida raqamli savodxonlik darajasining oshgani, fintech xizmatlariga bo'lgan ishonchning kuchaygani va zamonaviy to'lov texnologiyalarining keng joriy etilishi bilan izohlanadi. Ayniqsa, pandemiyadan keyingi davrda kontaktisiz to'lovlarga talab keskin oshdi, bu esa yangi xizmatlarning joriy qilinishini jadallashtirdi.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, raqamli to'lov tizimlari nafaqat yirik shaharlar, balki chekka hududlardagi foydalanuvchilar orasida ham ommalashmoqda. Masalan, 2023-yil yakuniga qadar Farg'ona, Qashqadaryo va Andijon viloyatlarida mobil ilovalar orqali amalga oshirilgan to'lovlar hajmi bir necha baravarga oshdi. Bu ko'rsatkichlar aholining bank tizimi bilan bevosita aloqasi kuchayganini bildiradi. Raqamli xizmatlardan foydalanish ko'proq yoshlar, tadbirkorlar, davlat xodimlari orasida keng tarqalgan bo'lsa-da, pensiya oluvchilar va ijtimoiy toifadagi fuqarolar orasida ham bu xizmatlar qamrovi ortib bormoqda.

Rossiya tajribasi bilan solishtirilganda, O'zbekistonda raqamli to'lov tizimlarining rivojlanishi bosqichma-bosqich kechayotgan bo'lsa-da, ayrim segmentlarda sezilarli yutuqlar qayd etilgan. Rossiyada 2018–2023-yillar oralig'ida NFC texnologiyasi, QR-kodli to'lovlar, Apple Pay, Samsung Pay va Mir to'lov tizimi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmi uch baravarga oshgan. Rossiyalik olim M.L. Kaluzhskiy ta'kidlaganidek, raqamli to'lovlar elektron tijorat infratuzilmasining asosiy bo'g'ini bo'lib, sotuvchi va xaridor o'rtasida vositachiliksiz moliyaviy aloqalarni ta'minlaydi.

O'zbekiston bozorida esa POS terminallar soni 2020-yildan 2024-yilgacha 35 foizga oshgan bo'lsa-da, mobil ilovalar orqali to'lovlar hajmi 220 foizga ko'tarilgan. Bu esa bevosita texnologik qulaylik, tezlik va xavfsizlik faktorlariga bog'liq. Ayniqsa, QR-kodli to'lovlarning joriy etilishi orqali kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlari uchun ham tranzaksiya qilish imkoniyati kengaymoqda. Masalan, 2024-yilda O'zbekistonda 190 mingdan ortiq kichik biznes subyekti QR to'lov xizmatlaridan foydalangan.

Raqamli to'lov tizimlarining iqtisodiy samaradorligi bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatadiki, bunday tizimlar moliyaviy operatsiyalarni yuritish xarajatlarini 25–35 foizgacha kamaytiradi. Naqd pullarni saqlash, tashish va qayta ishlashga ketadigan resurslar sezilarli darajada qisqaradi. Bundan tashqari, tranzaksiya tarixining saqlanishi audit va nazorat jarayonlarini soddalashtiradi. Soliq organlari uchun esa onlayn to'lovlar ochiq va real vaqt rejimidagi monitoringni amalga oshirish imkonini beradi.

Tahliliy kuzatuvlar asosida yana bir muhim natijaga kelish mumkin: raqamli to'lov tizimlari orqali aholi o'z to'lov intizomini oshirmoqda. Kredit tarixining shakllanishi, avtomatik to'lovlar tizimi, onlayn billing xizmatlari to'lov tartibining barqarorlashuviga xizmat qilmoqda. Bu esa banklar uchun risklarni kamaytiradi, kreditlash imkoniyatlarini kengaytiradi.



Tadqiqot davomida shuningdek muammoli jihatlar ham aniqlangan. Ulardan biri – texnologik infratuzilmaning ayrim hududlarda sustligi. Internet tezligi va mobil tarmoq qamrovi kam bo'lgan hududlarda raqamli to'lov xizmatlaridan foydalanish imkoniyati past darajada qolmoqda. Ikkinchidan, ayrim foydalanuvchilarning moliyaviy va raqamli savodxonligi yetarli emasligi sababli xizmatlar to'liq joriy etilmayapti. Uchinchi muammo – kiberxavfsizlikka oid ishonch darajasining pastligi, ya'ni shaxsiy ma'lumotlar bilan bog'liq xavotirlar.

Shunga qaramay, istiqbol tahlillari shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekistonda raqamli to'lov tizimlarining jadal rivojlanish sur'atlari saqlanib qolmoqda. 2025–2030-yillar uchun prognozlar asosida raqamli to'lovlarning umumiy to'lovlar tarkibidagi ulushi 90 foizga yetishi mumkin. Xususan, banklar va moliyaviy tashkilotlar o'rtasidagi API integratsiyasi, blokcheyn asosidagi transchegaraviy to'lovlar, raqamli valyutalar joriy etilishi orqali xizmatlar yanada tez, arzon va ishonchli bo'lishi kutilmoqda.

Umuman olganda, tahlillar asosida raqamli to'lov tizimlarining naqd pulsiz iqtisodiyotga o'tishda bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatayotgani isbotlandi. Ushbu tizimlar orqali fiskal shaffoflik, aholining moliyaviy xizmatlarga kirish darajasi, iqtisodiy samaradorlik va raqobatbardoshlik ortmoqda. Demakki, O'zbekiston va unga o'xshash rivojlanayotgan mamlakatlar uchun raqamli to'lov tizimlari kelajak iqtisodiyotining asosi bo'lib xizmat qilmoqda.

Raqamli to'lov tizimlarining o'sish sur'atlarini aniqroq aks ettirish uchun 2020–2024-yillar oralig'ida O'zbekistonda ro'y bergan asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar quyidagi jadvalda jamlangan:

1-jadval. O'zbekistonda raqamli to'lovlar hajmi va ulushlari (2020–2024)

Yil	Raqamli to'lovlar hajmi (trln so'mda)	Naqd puldan foydalanish ulushi (%)	QR-kod to'lovlari ulushi (%)
2020	9.8	65	4
2021	15.4	58	9
2022	21.0	49	15
2023	36.7	38	24
2024	54.3	29	34

Ushbu ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli to'lovlarning umumiy hajmi so'nggi besh yil ichida 5,5 baravarga oshgan. Bu o'sish ayniqsa 2022–2024-yillar oralig'ida keskin bo'lgan bo'lib, bunda QR-kodli to'lov texnologiyalarining joriy etilishi, fintech xizmatlarining rivoji va mobil qurilmalarning ommalashuvi asosiy omil bo'lib xizmat qilgan. Naqd puldan foydalanish ulushi esa aksincha, besh yilda 65 foizdan 29 foizgacha kamaygan, bu esa naqd pulsiz iqtisodiyotga o'tish jarayonining real ko'rsatkichidir.

QR-kodli to'lovlarning ulushi ham yildan-yilga ortib borayotganini ko'rish mumkin. 2020-yilda bu ulush atigi 4 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yilga kelib 34 foizga yetgan. Bu esa kichik savdo nuqtalari, xizmat ko'rsatish ob'ektlari va tadbirkorlar o'rtasida raqamli to'lov texnologiyalarining keng ommalashayotganini bildiradi. Ayniqsa, chakana savdo segmentida bu texnologiyalar arzon, tez va himoyalangan mexanizm sifatida e'tirof etilmoqda.

Tahlillar davomida aniqlanishicha, raqamli to'lov tizimlari joriy etilgach, transaksiyalar soni ko'payib, iqtisodiyotdagi likvidlik darajasi ham oshgan. Moliyaviy oqimlarning raqamli muhitda aylanishi natijasida banklar resurslaridan samaraliroq foydalanishga erishmoqda. Bundan tashqari, raqamli to'lovlar orqali har bir operatsiyaning izchil qayd etilishi natijasida "soya iqtisodiyoti" bilan kurashish imkoniyatlari kengaymoqda.

Rossiya tajribasiga tayanilsa, u yerda raqamli to'lovlar infratuzilmasi mamlakatning moliyaviy siyosatiga bevosita ta'sir qilmoqda. Xususan, "Mir" milliy to'lov tizimining ommalashuvi, davlat sektoridagi barcha ish haqi va pensiyalarni raqamli shaklda to'lashga o'tkazilishi ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatgan. O'zbekiston uchun bu tajriba dolzarb bo'lib, hozirda Humo va Uzcard tizimlari ham davlat to'lovlarning avtomatlashtirilishida muhim rol o'ynayapti.

Tahlillar shuni ham ko'rsatmoqdaki, foydalanuvchilarning raqamli to'lov tizimlariga ishonchi ortgani sari xizmatlar sifati va xavfsizligiga talab ham kuchaymoqda. Masalan, foydalanuvchilar orasida eng ommabop bo'lgan to'lov ilovalari — Payme, Click va Apelsin mobil platformalari foydalanuvchi interfeysi, autentifikatsiya va biometrik xavfsizlik tizimlarini takomillashtirmoqda. Bu esa o'z navbatida iste'molchilar ishonchini mustahkamlab, xizmatdan foydalanish chastotasini oshirmoqda.

Shuningdek, iqtisodiy tahlillar asosida quyidagi muhim natijalar aniqlandi:

Raqamli to'lovlar davlat xarajatlarini kamaytiradi. Masalan, naqd pulni saqlash, tashish, sanitariya va nazorat bo'yicha chiqimlar kamayadi.

Raqamli tranzaksiyalar orqali statistik va tahliliy ma'lumotlar bazasi kengayadi, bu esa iqtisodiy rejalashtirishda asosiy omil hisoblanadi.



Aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchi ortib, yangi foydalanuvchilar segmenti shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli to'lov tizimlarining tahlili naqd pulsiz iqtisodiyotga o'tishning faqat texnologik emas, balki institutsional, moliyaviy va ijtimoiy jihatdan ham asosli va zarur ekanini ko'rsatmoqda. Ushbu tizimlarning yanada kengaytirilishi, xususan, kichik biznes subyektlari, chekka hududlar va ijtimoiy himoyadagi qatlamlarga qaratilgan xizmatlar orqali amalga oshirilsa, iqtisodiyotning barqarorligi va raqobatbardoshligi sezilarli darajada ortadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, raqamli to'lov tizimlari zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas bo'lagi sifatida nafaqat moliyaviy jarayonlarni soddalashtirmoqda, balki iqtisodiy samaradorlikni oshirish, fiskal shaffoflikni ta'minlash va "soya iqtisodiyoti"ni qisqartirishda ham muhim rol o'ynamoqda. O'zbekiston misolida olib borilgan kuzatuvlar raqamli to'lovlarning hajmi yildan-yilga sezilarli darajada ortayotganini va bu o'zgarish naqd pulsiz iqtisodiy modelga o'tishning real ko'rinishidir.

Mobil ilovalar, QR-kodli to'lovlar va NFC texnologiyalari aholining keng qatlamlari uchun moliyaviy xizmatlardan foydalanishni soddalashtirdi. Ayni vaqtda, texnologik infratuzilmaning rivojlanishi, xavfsizlik tizimlarining kuchaytirilishi va raqamli savodxonlik darajasining oshirilishi bu tizimlarning barqaror faoliyat yuritishini ta'minlashda hal qiluvchi omillardir. Rossiya tajribasi bilan solishtirma tahlil shuni ko'rsatadiki, davlat sektorida raqamli to'lovlarning majburiy joriy etilishi iqtisodiy nazorat va fiskal tartibni sezilarli darajada kuchaytiradi.

Ushbu holatlarni inobatga olgan holda quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

Chekka hududlarda texnologik infratuzilmani kengaytirish – internet tezligi va mobil aloqa tarmog'i imkoniyatlari raqamli xizmatlar joriy etilishini ta'minlaydi.

Aholining moliyaviy va raqamli savodxonligini oshirish bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqilishi lozim.

Raqamli to'lov xizmatlarini yirik banklardan tashqari, kichik fintech kompaniyalari orqali ham targ'ib qilish raqobat muhitini yaxshilaydi.

Davlat xizmatlarida raqamli to'lovlarni joriy qilishni bosqichma-bosqich majburiylashtirish fiskal shaffoflikni oshiradi.

Kiberxavfsizlik va foydalanuvchi ma'lumotlarini himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish orqali raqamli to'lov tizimlariga bo'lgan ishonchni oshirish mumkin.

Milliy to'lov tizimlarini xalqaro tizimlar bilan integratsiyalash orqali transchegaraviy to'lovlar qulayligini ta'minlash lozim.

Yuqoridagi takliflar asosida raqamli to'lov tizimlarining rivoji nafaqat to'lov madaniyatini, balki iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy farovonlik darajasini ham yangi bosqichga olib chiqishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdullayeva I.S., Dilmurodov J.U. Raqamli to'lov tizimlari: Naqd pulsiz to'lovlarning kelajagi. Journal of International Scientific Research, Vol. 2, Issue 3, 2025.
2. Raximov S. Elektron to'lov tizimlari va ularning iqtisodiy samaradorligi. Iqtisodiyot va ta'lim, 2022.
3. Xusanov R. Raqamli iqtisodiyot sharoitida to'lov tizimlarini modernizatsiya qilish yo'llari. Moliyaviy tahlil, 2023.
4. Kaluzhskiy M.L. Elektron tijorat: marketing tarmoqlari va bozor infratuzilmasi. Moskva: Iqtisodiyot, 2019.
5. Qodirov F. Процесс разработки игрового движка Unity. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish sharoitida innovatsiyalar. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari, 2019.
6. World Bank. Digital Financial Services: Trends and Challenges. Washington D.C., 2023.
7. Markaziy bank hisobotlari. Naqd pul muomalasi bo'yicha sharh, 224. <https://cbu.uz/upload/iblock/93e/...nakd-pul-2024-yanv-iyun-yil-LOTIN.pdf>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

6-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>